

50-100 m atrofda qirg'oqbo'yi pelosasida yer osti suvlarining sathi ko'tarilib ketgan. Bu holat qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish imkonini kamaytiradi, yerlarning meliorativ holatini yomonlashtiradi. Suv omborining quyi qismida namlanish darajasi yuqori, hatto aholi turar joylarida namlik yuqori ekanligi kuzatiladi. Hozirgi kunda ushbu salbiy oqibatlarni kamaytirish maqsadida suv omborining atrofida kollektor-drenaj tizimi barpo etilgan. Shulardan markaziy kollektor nomi Sariyoz ko'li deb ataladi. Bundan tashqari, suv ombori atrofida qirg'oq mintaqalariga 50 ming tup tol va teraklar ekilgan. Ular suvga talabgor daraxtlar bo'lib, ular tuproqdagi ortiqcha namni o'ziga tortib oladi. 1994 yilgacha asosiy e'tibor faqat suv omboriga suvni to'ldirish va uni qanday sarf etishga qaratilgan bo'lsa, 1994 yildan boshlab qo'shimcha ravishda suv ombori yaqinidagi ekin ekishga yaroqsiz yerda (15-20ga), suv ombori hududidan oqilona foydalanish maqsadida ilonchilik xo'jaligi tashkil qilinib, tibbiyot uchun zarur bo'lgan ilon zahrini olishni amalga oshirishni boshlagan, lekin ayrim sabablarga ko'ra bu faoliyat 1996 yilga kelib tugatilgan. 2009 yilga kelib bu yerda baliqchilik xo'jaliklari tashkil etilib u yerda 10-15 turdagi baliqlar yetishtirib kelinmoqda.

**Xulosa** o'rnida shuni aytish mumkinki, viloyatdagi mavjud suv omborlaridan ko'p maqsadli foydalanish usullarini rivojlantirish va bu sohani takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Suv omborlarining qurilishida ularni texnik jihatdan mukammal holatda barpo etish, daryolar suv rejimini tartibga solish, gidroenergetika, baliqchilik va rekreatsiya maqsadlarida samarali foydalanishni tashkil qilish bilan birga xalq xo'jaligining ehtiyojlarida suv resurslaridan unumli va tejab-tergab, oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilishi talab etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdulqosimov A., Jo'raqulov X. Закономерности дифференциации ландшафтов Зарафшанских гор и приглежащих равнин. Самарканд-2022.
2. Гаппаров Ф.А. Сув омборларини хавфсиз ва самарали ишлатишни ташкил этиш. «AGRO ILM» Журнали. –Тошкент, 2007. - № 4. –Б.22.
3. Журакулов Х. “История развития рельефа и природы Юго-Западного Узбекистана в новейшем этапе. // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 28-жилд. – Тошкент. 2007.
4. Muhammadiyev S. A. va boshqalar. Omonqo'ton ona tabiat mo'jizasi. Samarqand, 2007.

### **ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISH DARAJASINI GIGIYENIK BAHOLASH**

*Boqijonov F.A., Nazirova M.R.  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

Kirish. Respublikaning samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida, so'nggi yillarda mamlakatimizda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining muhim asosi sifatida aholi salomatligi uchun maqbul sharoitlarni yaratish va ekologik muvozanatni saqlashni takomillashtirishga yo'naltirilgan chuqur islohotlar olib borilmoqda

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ma'lumotlarga ko'ra bizning davrimizga kelib, atmosfera havosidagi changlar miqdori o'tgan XX-asrga nisbatan 20%ga oshgan. Odamlar sixat salomatligiga xavf tug'diruvchi zaxarli moddalarning aksariyati, shu jumladan uglerod oksidining 65-97%i, uglevodlarning 56-75 %i. va azotning 46-63%i mamlakat aholisining yarmidan ko'p qismi yashaydigan shaharlardagi mavjud avtotransport vositalaridan chiqayotgan ifloslantiruvchi moddalar xisobiga xosil bo'ladi [6,7,8,9,10].

Farg'ona viloyat ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish boshqarmasi, viloyat IIB, viloyat SEO va JS boshqarmasining Farg'ona shahar bo'limi xodimlari bilan birgalikda o'tkazilgan 2020-2022 yillar davomidagi tekshiruvlari asosida aniqlangan ma'lumotlar asosida ilmiy izlanishlar olib borildi.

**Natijalar.** Hamkorlikda olib borilgan tadbirda avtotransporti bor tashkilot va korxonalarda, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi, Farg'ona azot zavodi, Farg'ona shaharga kirish qismidagi 1 postda 245 ta xolatda - 30 tasi yuqori, Farg'ona shahridan Farg'ona tumaniga kirish qismidagi 5 postda 283 ta - 31 tasi yuqori, Quvasoy shaharga kirish qismida 189 ta - 21 ta yuqori, Al-Farg'oniy ko'chasida - 241 ta - 21 tasi yuqori, Qori Niyoziy ko'chasida - 89 ta - 15 tasi yuqori, A.Navoiy ko'chasida 301 ta - 31 tasi yuqori, Quvasoy ko'chasida 276 ta - 25 tasi yuqori bo'lib, jami 1714 ta avtotransportlarning 174 tasi me'yordan yuqori chiqqan va bu 10,1 foizni tashkil etgan.

Avtotransportlardan chiqayotgan zararli CO<sub>2</sub> is gazlari va tutun miqdorlari Avtotest gazoanalizator yordamida o'lchash ishlari olib borilgan. Tekshirishlar natijasida 84 ta avtotransport joyida qaytadan sozlandi.

Farg'ona shahri shartli ravishda ikki hududga ajratilsa, toza hudud Oxunboboev mavzesini va Qirguli hududini ifloslangan hudud deb olish mumkin. Atrof muxitni ifloslanishini asosan sanoat rivojlangan hudud, ya'ni Qirguli mavzesi tashkil qilmoqda. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatyaptiki 2020-2023 yillar davomida shahar aholisining kasallanish holat bevosita atmosfera havosining ifloslanishiga bog'liq bo'lib, bolalar, o'smirlar va kattalar orasida 1-o'rinda nafas a'zolari kasalliklari - 14-16%, 2-o'ringa kattalar orasida ovqat xazm qilish sistemasi kasalliklari - 7-10%, 3-o'rinda allergik kasalliklar, endokrin, buyrak, jinsiy a'zo kasalliklari - 5-7% 4 - o'rinda esa gipertoniya va yurak ishemik kasalliklari - 5-6% va kamqonlik egallaydi.

Ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqqan xolda aholining kasallanish holatni o'rganilib, kuzatuv mintaqasidagi atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarga quyidagilarni kiritish mumkin. Shahar hududida jami 815 ta korxonalar va tashkilotlar mavjud bo'lib, shundan 15 tasi yirik korxonalar, 10 ta xalq istemol mollari ishlab chiqaruvchi korxonalar va 738 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qildi.

**Muhokama.** O'tgan 2020-yildagi atmosfera havosini ifloslanish darajasini baxolash maqsadida 1201 ta olingan havo namunalari chang, oltingugurt IV-oksidi, uglerod oksidi, azot oksidi, sulfat kislotasi kabi zararli gazlarga tekshirildi.

Ushbu olingan 1201 ta havo namunasini 824 tasi changga tekshirilgan bo'lib, shundan 244 tasi gigienik talabga javob bermadi, bu 30 foizni tashkil etdi. Farg'ona azot zavodidan 241 ta olingan sinamalarni 25 tasida, FNQIZ - 185 tadan 21 tasida, yoqilg'i quyish shaxobchalaridan 165 - 16 tasida, choraxalaroda 406 tadan 194 tasida, avtomobil yuvish shaxobchalarida 66 tadan 28 tasida me'yordan yuqoriligi aniqlandi. 2021 yil atmosfera havosini ifloslanish darajasini baxolash maqsadida 1281 ta olingan havo namunalari quyidagi ko'rsatgichlarga tekshirildi: CHang, oltingugurt IV oksidi, uglerod oksidi, azot oksidi, sulfat kislotasi. Ushbu olingan 1281 ta havo namunasini 890 tasi changga tekshirilgan bo'lib, shundan 282 tasi gigienik talabga javob bermadi, bu 31 foizni tashkil etdi. Ularning barchasi changni tashkil etdi. Farg'ona azotdan 254 ta olingan sinamalarni- 25 tasida, FNQIZ-185 tadan 14 tasida, yoqilg'i quyish shaxobchalaridan 160-13 tasida, choraxalaroda 428 tadan 210 tasida, avtomobil yuvish shaxobchalaida 96 tadan 20 tasida me'yordan yuqori chiqqan. 2022 yil atmosfera havosini ifloslanish darajasini baxolash maqsadida 1286 ta olingan havo namunalari quyidagi ko'rsatgichlarga tekshirildi: CHang, oltingugurt IV oksidi, uglerod oksidi, azot oksidi, sulfat kislotasi. Ushbu olingan 1286 ta havo namunasini 892 tasi changga tekshirilgan bo'lib, shundan 261 tasi gigienik talabga javob bermadi, bu 29 foizni tashkil etdi. Ularning barchasi changni tashkil etdi. Farg'ona azotdan 254 ta olingan sinamalarni- 23 tasida, FNQIZ-185 tadan 16 tasida, yoqilg'i quyish shaxobchalaridan 160-12 tasida, chorahalaroda 428 tadan 192 tasida, avtomobil yuvish shaxobchalaida 96 tadan 18 tasida me'yordan yuqori chiqqanligi qayd etildi.

**Xulosa.** Farg'ona shahar aholisining salomatlik holatga atmosferani ta'sirini o'rganish maqsadida 2020-2022 yillarda birlamchi kasallanish bo'yicha aholining salomatlik holati reprospektiv tahlili qilinganda ko'z va ko'z kossasi kasalliklari, nafas olish a'zolari kasalliklari ortganligi aniqlandi. Aholining umumiy kasallanish holatni tarqalishi tahlil qilinganda ifloslangan ya'ni yirik sanoat korxonalarini mavjud bo'lgan Qirguli hududida nafas olish tizimi kasalliklari, qon aylanish tizimi kasalliklari, teri va teri osti klechatkasi kasalliklari, ruhiy buzilishlar, parazitlar

kasalliklar yillar davomida ko'payganligi aniqlandi. Olingan tahlil natijalari shuni ko'rsatki 2021 yilda atmosfera havosini ifloslanishi boshqa yillarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Barcha yillarda chang asosiy ifloslantiruvchi manba bo'lib qolaverdi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. Bokijonov F. A. (2024). Analysis of deases in elderly and senile persons, affecting active work activity. *Innovative Development in Educational Activities*, 3(1), 360-364.
2. Boqijonov F.A., Nazirova M.R., Mamadaliyev D.D. (2024). Hygienic assessment of the level of atmospheric air pollution. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(01), 66-68.
3. Boqijonov F.A. Atmosfera havosi ifloslanishini aholi salomatligiga ta'sirini gigiyenik baholash (Farg'ona shahar misolida) //Journal of innovations in scientific and educational research. 6.5 (2023): 648-653.
4. Matxoshimov N.S., Boqijonov F.A. (2022). Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining nogiron bo'lish ehtimolligi va uning prognozi (Farg'ona viloyati misolida). *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(3), 452-455.
5. Boqijonov F.A. (2024). Hygienic assessment of the impact of atmospheric air pollution on public health. *journal of scientific research, modern views and innovations*, 1(1), 7-12.
6. Boqijonov F.A. (2024). Hygienic assessment of the probability of disability of the working age population. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(02).
7. Boqijonov F.A., Ismoilov D.T. Atmosfera havosi holatining aholi salomatlik darajasiga ta'sirini gigiyenik baholash. "Iqro Indexing 7.2 (2024).

#### **ALLERGIK KASALLIKLARNI KELIB CHIQISHIDA EKOLOGIK MUAMMOLAR**

*Burxonova G., Sattorova R.  
Central Asian Medical University*

Dunyoda allergik kasalliklar shakllanishi va tarqalishiga tashqi muhit omillarining ta'siri, yangidan-yangi allergenlarning paydo bo'lishi, mikroekologiyaning (ichaklar, teri, shilliq qavatlar florasi) buzilishi, stress sabab bo'lmoqda. Eng ko'p tarqalgan etiologik muhim allergenlar ichida o'simliklar changi alohida ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kunda ularning 700 dan ortiq turi aniqlangan [1, 3]. Allergik kasalliklar geterogenligi, irsiy omillarning hamda tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri oqibatida allergenlar spektri kengayib bormoqda.

Allergiya so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib 'allos' begona va 'ergo' ta'sir degan ma'noni anglatadi. Shulardan allergik rinit dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda ushbu kasallikdan aholining 30% - 50% aziyat chekmoqda. Ushbu patologiyaning rivojlanishida tibbiy-biologik va sanitar-gigiyenik omillarning ta'siri bilan bir qatorda atrof muhit omillarining ta'siri ham muhim o'rin tutadi. Atmosfera havosining ifloslanishi allergik rinitning kelib chiqishi, rivojlanishiga va qaytalanishiga sabab bo'lishi olimlarning tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha tasdiqlanmoqda

Sizga ma'lumki, allergiya bu –inson organizmida tashqaridan allergenlik xususiyatiga ega bo'lgan har xil yot begona bo'lgan moddalarga nisbatan paydo bo'ladigan o'ziga xos kasallik hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, respublika va viloyat davolash muassasalariga murojaat qilgan bemorlar orasida shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan 10 marta ko'p. Bu yerda ekologiya ham katta ahamiyat kasb etadi. Bir respublikaning turli qismlarida allergik kasalliklar tarqalishi bir tekis emas. Masalan, Qozog'istonning janubiy mintaqalarida pollinoz 10-15 foiz aholida kuzatilgan bo'lsa, shimolida esa aholining faqat I foizida qayd etilgan. Atmosfera havosi yuqori darajada ifloslangan mintaqalarda (masalan, metallni qayta ishlash, sement chiqarish korxonalari, issiqlik elektrtansiyalari yaqinida joylashgan rayonlarda) allergik kasalliklar bilan davolash muassasalariga muroja't qilgan bemorlar soni, toza havoli hududlarga qaraganda 8-10 marta